

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.I.Nurmatova	
Talabalarda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilinishi	107
D.B.Mahametova	
Use of information technologies in education.....	112
M.Norinov	
Bo'lajak texnik mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini multimedia vositalari asosida bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi.....	115
G.T.Hojikarimova	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	119
X.M.Jo'rayev	
Kimyo o'qituvchilarining o'zini-o'zi rivojlantirish omillari	123
N.B.Odilxo'jazoda	
Kimyo o'qituvchisi kasbiy kompetentligini aniqlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	128
B.T.Tojibayev, S.S.Isokov	
Globalashuv kontekstida – ta'lim	132
D.Q.Oxunova	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalari.....	136
N.E.Yuldasheva	
Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari	140
B.X.Baydjanov, Y.E.Mamatova	
Boshlang'ich ta'limda mediamadaniyat va texnoetikani o'qitish texnologiyasini takomillashtirish.....	144

FALSAFA

Б.С.Ганиев	
Социально-политические факторы повышения предпринимательской культуры в Узбекистане	150
M.D.Pardaeva	
Uchinchi renessans poydevorini yaratishda Navoiy Naqshbandiyona g'oyalarining ahamiyati.....	156
Z.P.Nadirova	
Intuitive cognition as a synergistic process.....	161
X.X.Raxmatova	
Naqshbandiylik – jahoniy ta'limot	165
Z.A.Akhmedova	
Donishning ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish haqidagi fikrlari tahlili.....	170
B.X.Karimov	
Ong muammosining ilmiy – falsafiy va psixologik talqini.....	175
L.M.Karimova	
Jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida ayollarning ijtimoiy mobilligini takomillashtirish mexanizmlari	180
M.M.Gulamova	
Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda "Naqshbandiya Tariqati Nazariyotchisi" ta'limotining ahamiyati.....	185
O.T.Sharipova	
Xojagon tasavvufiy ta'limotida "Olami Kabir" haqida	189
Sh.B.Sattorova	
Mirzo Abdulqodir Bedilning inson va jamiyat haqidagi ta'limotida adolat va tenglik muammosini o'ziga xos tadqiqi.....	194
B.X.Hamdammov	
Boburning insonparvarlik – falsafiy qarashlari.....	200

KIMYO O'QITUVCHILARINING O'ZINI-O'ZI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

ФАКТОРЫ САМОРАЗВИТИЯ УЧИТЕЛЕЙ ХИМИИ

SELF-DEVELOPMENT FACTORS FOR CHEMISTRY TEACHERS

Jo'rayev Xusniddin Maxammadaliyevich¹¹Farg'ona davlat universiteti kimyo kafedrasida o'qituvchisi**Annotatsiya**

Maqolada yangi ta'lim paradigmasi – hayot davomida tahsil olish ko'nikmalarini rivojlantirish uzluksiz davom etadigan jarayon ekanligi asoslangan, kimyo o'qituvchisini o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasini ahamiyati, o'zini-o'zi rivojlantirish bosqichlari, omillari, tajriba-sinov ishlari davomida o'tkazilgan anketa so'rovi natijalari tahlillari yoritilgan.

Аннотации

В статье новая образовательная парадигма исходит из того, что развитие навыков непрерывного обучения представляет собой непрерывный процесс, важность компетентности саморазвития учителя химии, этапы саморазвития, факторы, опыт — приведен анализ результатов анкетирования, проведенного в ходе опытной работы.

Abstract

In the article, the new educational paradigm proceeds from the fact that the development of lifelong learning skills is a continuous process, the importance of self-development competence of a chemistry teacher, stages of self-development, factors, experience — An analysis of the results of a survey conducted during experimental work is provided.

Kalit so'zlar: ta'lim trayektoriyasi, individual trayektoriya, didaktik trayektoriya, o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, individual rivojlantirish dasturi, "yo'l xaritasi".

Ключевые слова: образовательная траектория, индивидуальная траектория, дидактическая траектория, работа над собой, саморазвитие, индивидуальная программа развития, «дорожная карта».

Key words: educational trajectory, individual trajectory, didactic trajectory, work on oneself, self-development, individual development program, "road map".

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash davlatimizning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi barchamizga yaxshi ma'lum. Jamiyat talabidan kelib chiqib, har bir kimyo o'qituvchisi o'zini-o'zi rivojlantirish, o'z ustida ishlab, mutaxassisligi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkillash, AKT va chet tillarini mukammal bilishga intilishi, zamonaviy kimyoviy bilimlarni egallab, bugungi kun talabiga mos o'qituvchi bo'lib yetish imkoniyatlari yaratilgan. Zero, har bir o'qituvchi butun hayoti davomida o'qib, o'rganishdan, izlanishdan qolmasligi bugungi kunning talabi, ta'lim sifatini oshirishning muhim omilidir [1].

ASOSIY QISM

XXI asr pedagogikasi mazmuniga so'nggi (10 yil ichida) "ta'lim trayektoriyasi", "individual trayektoriya", "didaktik trayektoriya" tushunchalari iste'molga kirib keldi. Ular shaxsning o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan, individual imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olib, tahsil olishning yo'l harakatini bildiradi. Ya'ni, dunyo akademik muhitida insonparvarlashtirish tendensiyasi negizida shaxsning yangi ta'lim paradigmasi-hayot davomida tahsil olish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi uzluksiz davom etadigan jarayonni bildiradi. Ilmiy manbalarda ham "didaktik trayektoriya" atamasi keng qo'llanilayotganligini ko'rish mumkin. Taniqli pedagog, didakt olim V.A.Stastyoninning «Современная дидактика» kitobida tahsil oluvchilarning zamonaviy rivojlanish tendensiyasi negizida talabalar uchun shaxsiy didaktik trayektoriyasini belgilash lozimligi uqtiriladi [2]. Buning uchun muallif kognitiv-yo'nalgan va shaxsga yo'nalgan yondashuv asosida o'quv faoliyati uchun zarur bo'lgan yo'l xaritasini tuzish lozimligini asoslab beradi. T.F.Novikovaning "Дидактические траектории в работе со словом как знаком культуры" maqolasida ta'lim oluvchilarning didaktik trayektoriyasini belgilash uchun qo'llaniladigan metod va usullar haqida fikr yuritiladi [3].

A.V.Konishevaning “Специфика формирования индивидуальной образовательной траектории в электронной дидактической среде” maqolasida mazkur atama “individual ta’limiy trayektoriya” sifatida qo’llanilgan [4].

Kasbiy kompetensiya o’zining mutaxassisligi bo’yicha bilimlarni doimo boyitib borishni, axborotlarni o’rganishni, zamon talablarini anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o’z faoliyatida qo’llay bilishni taqozo etadi.

Kimyo o’qituvchilarning pedagogik kasbiy kompetentlikka ega bo’lishlarining asosi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- doimiy tarzda mutaxassisligi bo’yicha bilimlarini oshirib borish;
- AKTni mukammal bilish, amaliyotda qo’llash;
- chet tillari (ingliz, nemis, fransuz va b.) ni bilish, til sertifikatiga ega bo’lish;
- kimyoviy ishlab chiqarishlarni va ularda boradigan jarayonlardan xabardorligi, o’quvchilarga bu borada yetarli bilimga egaligi;
- ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bo’yicha bilimlarga egaligi;
- yuqorida ko’rsatib o’tilgan yo’nalishlar bo’yicha doimiy ravishda yangi bilimlarni o’zlashtirib borishi;
- ularga ijodiy yondashib, qayta ishlash va o’z amaliy faoliyatida samarali qo’llash malakasiga egaligi;
- kutilmagan vaziyatlarga moslashuvchanligi va mas’uliyatni xis qilishi.

Kimyo o’qituvchisini kasbiy kompetentlikka ega bo’lishda o’z ustida ishlash va o’z-o’zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O’z-o’zini rivojlantirish vazifalari o’zini o’zi tahlil qilish va o’zini o’zi baholash orqali aniqlanadi.

Adabiyotlarda o’z ustida ishlash, o’z-o’zini rivojlantirish, individual rivojlanish dasturi (IRD) bo’yicha quyidagicha ta’rif berilgan.


O’z ustida ishlash — shaxs yoki mutaxassis tomonidan o’zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo’lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etilishidir.

O’z-o’zini rivojlantirish — shaxsning o’zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo’lida aniq maqsad va puxta o’ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi.

Individual rivojlanish dasturi (IRD) — har bir shaxs yoki mutaxassisning o’zida ma’lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakteridagi dastur.

Har qanday mutaxassis kabi pedagog ham o’zi uchun shaxsiy-amaliy xarakterga ega “Individual rivojlanish dasturi”ni ishlab chiqa olishi, u asosida pedagogik faoliyatni yo’lga qo’yishi zarur [5].

Ushbu fikrlar va o’z kuzatishlarimizdan, tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, kimyo o’qituvchisini o’z ustida ishlash, o’zini-o’zi rivojlantirish uchun didaktik trayektoriyasini ya’ni “yo’l xaritasi”ni, rivojlantirish omillarini ishlab chiqishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Uning bosqichlari quyidagilardan iborat.



Tadqiqotlarimiz mobaynida kimyo o'qituvchilarida o'zini-o'zi rivojlantirish, rivojlanganligini aniqlash texnologiyasini takomillashtirish zarurati mavjudligi ayon bo'ldi. Shu jihatdan olganda, biz o'qituvchilarning o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish paradigmasidagi ta'limning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini egallash jarayonlarini tahlil qildik va uning funksional bosqichlarini tahsil oluvchilarda maqbul kompetensiyalarni rivojlantirish nuqtai nazaridan baholadik. Muammoli o'qitish paradigmasi quyidagi mezonlarga tayanadi:

–ta'limning ijtimoiylashuvi – mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga nisbatan texnokratik yondashuvdan voz kechish, o'zlashtiriladigan bilimlar majmuasining pedagogik hamda psixologik xususiyat kasb etishini ta'minlash, tahsil oluvchilarda umuminsoniy, umummadaniy qadriyatlar mazmunida ilgari surilgan g'oyalarga asoslangan ijtimoiy tafakkurni shakllantirish;

– ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy istiqloq g'oyalariga asoslanish;

–shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish hamda kimyo fanidan mustaqil ta'lim olishga bo'lgan layoqatiga tayanish va uni takomillashtirish;

–shaxsning kasbiy jihatdan shakllanishida o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga erishish;

–ta'lim jarayonida o'quv dasturlarining tahsil oluvchilar qobiliyati hamda qiziqishlariga ko'ra tanlab olinishi borasidagi imkoniyatning mavjudligi;


–pedagogik ta'limning fundamental xususiyat kasb etishi, ya'ni, tahsil oluvchilar tomonidan o'zgaruvchan sharoitlarda shaxs ijodiy rivoji asosini ta'minlovchi invariant bilimlarning o'zlashtirilishiga erishish;

–ta'limning uzluksizligi, ta'limning har bir jarayon bosqichining natijalanishini ta'minlovchi kasbiy ta'lim (kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash) dasturlar tizimini yaratish va rivojlantirish, muayyan dasturni ta'limning u yoki bu bosqichida o'qitilishi yoki o'qishni boshqa tipdagi o'quv muassasasida davom ettira olish imkoniyatini bera olishi;

–ta'limning ekvivalentligi, ya'ni uning davlat ta'lim standarti, milliy madaniyati va mentalitet, shuningdek, xalqaro meyorlarga muvofiq darajasi.

Yuqoridagilar asosida kimyo o'qituvchisini o'zini-o'zi rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da birinchi navbatda har bir o'qituvchi o'zining mutaxassisligi bo'yicha bilim darajasini aniqlab olishi zarur, bunda o'qituvchilarning malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlarida bilim darajalarini aniqlovchi turli test savollarini mustaqil ravishda yechib ko'rish, natijalarini tahlil qilishi, yo'l qo'ygan kamchiliklarini aniqlashi, nazariy bilimlarini boyitib borishi, tajribali o'qituvchilarni darsiga taklif qilib, metodik va ilmiy kamchiliklarini bilib olishi, ularni bartaraf etish bo'yicha tajribali va yetuk o'qituvchilarni darslariga kirishi, bilim, ko'nikma va malakalarini, tajribalarini o'z ustida ishlash, o'zini-o'zi rivojlantirish orqali boyitib borishi maqsadga muvofiq. AKT va chet tillari bo'yicha ham birinchi navbatda bilim darajasini aniqlash, unga qarab, o'zini-o'zi rivojlantirish bosqichlarini belgilash, tizimli ishlash talab etiladi.

Kimyo o'qituvchisini o'zini-o'zi rivojlantirish omillari sifatida quyidagilarni ishlab chiqdik:



2-rasm. Kimyo o'qituvchisining o'z-o'zini rivojlantiruvchi omillar

XULOSA

Kimyo o'qituvchilarida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarni aniqlash uchun biz 2021-2022 o'quv yillarida anketa savollari bilan ularga murojaat etdik. Berilgan savollar ularda kognitiv, faoliyatli-motivatsion sohalarni aniqlashga mo'ljallandi. "Siz uchun o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi ahamiyatlimi?" degan savolga deyarli 100% respondentlar "Ha", deb javob berishdi. , "O'z-o'zini rivojlantirish omillarini sanab o'ting" degan savolga respondentlarni 87% mutaxassislik, chet tili va AKTni bilish deya e'tirof etdilar. "Internet orqali qabul qilingan ma'lumotlarni to'liq o'zlashtirishda innovatsion texnologiyalarining roli qanday?" savoliga respondentlarning 92% "ijobiy", deb javob berishgan.

O'tkazilgan anketa savollariga olingan javoblardan kimyo o'qituvchilarida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini aniqlash imkoniyatlari darajasi ta'lim jarayoni sifati, uning zamonaviy bilimlar va innovatsion shakl hamda mazmun bilan ta'minlanganligi, uning mohiyatini muntazam tarzda takomillashtirish zarur ekanligi anglanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. X.Jo'rayev O'z-O'zini rivojlantirish – davr talabi. Kimyo fani va sanoatining dolzarb muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari Farg'ona, 2023-yil 24-25-noyabr
2. Сластёнин В.А. Современная дидактика.-М.; 2002.

PEDAGOGIKA

3. Новикова Т.Ф. Дидактические траектории в работе со словом как знаком культуры-НИУ БелГУ // Русский язык в школе. — 2011. — №11.
4. Конишева А.В. Специфика формирования индивидуальной образовательной траектории в электронной дидактической среде/ <https://cyberleninka.ru/article/-n/spetsifika-formirovaniya>
5. Муслимов Н.А., Усмонбоева М Х . Сайфуров ДМ , Тураев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари /. — Тошкент, 2015.